INGLIZ TILIDAN DARIY TILIGA KIRGAN HARBIY O‘ZLASHMA TERMINLAR

Sherali Ishankulovich Ertayev, *O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi Tillar kafedrasi dotsenti*

Annotatsiya. Mazkur maqolada ingiliz tilidan dariy tiliga o‘zlashgan harbiy terminlari tavsifi ilmiy jihatdan yoritilgan. Shuningdek, maqolada dariy tiliga o‘zlashgan harbiy terminlarning mazmun-mohiyati ochib beriladi.

Kalit so‘zlar. Dariy tili, leksika, harbiy soha, o‘zlashma termin, qo‘shin turlari, artilleriya, aloqa, radielektron kurash.

РЕЗЮМЕ. В данной статье раскрыта характеристика заимствованиии из английского языка военных терминов на языка дари, а также сущность и значения военных заимствования из английского языка терминов языка дари.

Ключевые слова. Язык дари, лексика, военная сфера, заимствованные термини, военные соединения, артиллерия, радиосвязь, радиоэлектронная борьба.

ANNOTATION. The article analyzes the metter of characteristics of military terms in dari, loan-word at the same time the meaning of military terms in dari language.

Keywords. Dari language, lexis, military sphere, term, military units, affixation, composition, lexicalization.

Hozirgi dariy tilining lug‘at tarkibi XX asrdan boshlab jadal suratlar bilan kengayib borayotganini kuzatish mumkin. Bunda lug‘at tarkibi so‘zning semantik maydonining kengayishi bilan bir qatorda chet tillardan kirgan o‘zlashmalar ham joy olmoqda. Terminologik leksikani termin so‘zlar-otlar, hamda terminologik so‘z birikmalari tashkil qiladi. Bu ikki katta terminologik guruh hozirgi dariy tilining fonetika, morfologiya va sintaksis qoidalari asosida tuziladi[1].

Ingliz so‘zlarining dariy tili leksikasiga kirib kelishining asosiy sababi Britaniyaning 1838-1842, 1878-1881 va 1919-yillarda Afg’onistonga qilgan

[1] Ертаев Ш.И. Дарий тилидаги харбий терминлар тавсифи. Sharqshunoslik/Востоеоведение/Oriental Studies.№2. –Toshkent davlat sharqshunoslik instituti (ilmiy jurnali), 2016. – 58 b.



mustamlaka harakatlari va bu mamlakatning Britaniya mustamlakasi bo‘lgan Hindiston bilan qo‘shniligi va o‘zaro tashqi aloqalar o‘rnatilganligi, shuningdek, Afg‘onistonda 2001-yildan boshlab NATO Qurolli Kuchlarining xavfsizlikka ko‘maklashuvchi halqaro kuchlari (XKHK-ISAF) joylashtirilganligidir.

Harbiy terminologiya leksik vositalar sistemasi bo‘lib, harbiy fan va maxsus muloqot vositasi hisoblanadi[2]. Dariy tilida harbiy terminologiya hali maxsuslashtirlmagan va Afg‘oniston lug‘atlarida turg‘unlashmagan. Harbiy terminlar o‘zining so‘z boyligi va chet tillardan o‘zlashgan o‘zlashmalar hisobiga to‘ldiriladigan murakkab tizimdir[3]. Hozirgi afg‘on harbiy xizmatchilari AQSH, Buyuk Britaniya, Kanada, Fransiya va NATO ga a’zo boshqa davlatlar instruktorlari tomonidan o‘qitilib kelingan. Shu sababli hozirgi kunda Afg‘oniston qurolli kuchlari harbiy xizmatchilari ingliz tiliga mansub bo‘lgan anchagina terminlardan foydalanib kelishgan. Ulardan ayrimlari Afg’onistondagi dariyzabon xalqning kundalik hayotida tez-tez uchrab tursa, ba’zilari ayrim soha terminlari sifatida onda-sonda qo‘llanadi. Chet tili, xususan ingliz tilidan kirgan bu o‘zlashmalarning dariy tilidagi taqdiri, milliy til, harbiy soha va so‘zlashuv nutqidagi qo‘llanilish o‘rni ham turlichadir.

Masalan: تخنیک *taxnik* «texnika» (ing. technique), تیم *tim* «guruh», «jamoa» (ing. team), گروپ *grup* «guruh» (ing. group), واترپروف *wâtarpruf* «suv o‘tkazmaydigan» (ing. waterproof); سیت *sit* «komplekt» (ing. set), کامپیوتر *kâmpiutar* «kompyuter», (ing. computer), امبولانس *ambulâns* «tez yordam mashinasi» (ing. ambulance), نرس *nars* «hamshira» (ing. nurse), پوستر *pôstar* «plakat» (ing. poster) kabi o‘zlashmalar kundalik hayot va harbiy sohalarni ifodalashda faol qo‘llanib kelinmoqda.

Har bir tilga chet tilidan kirib kelgan har bir yangi so‘z tabiiy ravishda o‘sha tilning fonetik, orfografik, grammatik elagidan o‘tadi. Bunda so‘z o‘qilishi,

[2] Киселева Л.Н.. Язык дари Афганистана. Москва., Наука, 1985-125б.

[3] Белоконь В.В. Иноязычные заимствования в лексическом составе современного литературного языка дари (Электронный ресурс): В сопоставлении с персидским и другими близкородственными языками: Дис. Канд.филол.наук. –М.: РГБ 2006. – 125с.



yozilishi va tuzilishi bo‘yicha o‘zlashayotgan tilning muayyan qonuniyatlari ta’siri ostida ayrim o‘zgarishlarni boshidan kechiradi, ya’ni chet so‘zlar qabul qiluvchi til izmiga ma’lum darajada bo‘ysunadi.

Masalan: ریل rel- «temir yo‘l» (ing. rail), تلگراف telgeraf- «telegraf» (ing. telegraph), اشترینگ eštereng «avtoulov ruli» (ing. steering), سیلیندر *silindar* «silindr» (mator porsheni) (ing. cylinder); هارن *hâran* «avtoulov signali» (ing. horn); استاندارد *estândârd* «standart» (ing. standard), قوماندان *qômândân* «qo‘mondon» (ing. commander), سیستم *sistem* «sistema» (ing. system), ترافیک *trâfik* «transport qatnovi» (ing. traffic), کنترول *kantrul* «nazorat» (ing. control), استشن *estešan* «stansiya» (ing. station), پلان *plân* «reja» (ing. plan), دیرکت *direkt* «to‘g‘ri» (ing. direct), لوژستیک *lôžestik* «front orti ta’minoti», (ing. logistics), ورکشاپ *warkšâp* «ustaxona» (ing. workshop), پرسونل *persunal* «shaxsiy tarkib» (ing. personnel) va b.

Aloqa, radioelektron kurash va razvedka sohasida ham ko‘plab chet tillari, xususan ingliz tilidan o‘zlashgan o‘zlashma harbiy terminlar ishlatilmoqda: بلاک *blâk* «blok» (ing. block), کود *kud* «kod» (ing. code), فریکانس *frikâns* «chastota» (ing. frequency), سویچ *swič* «uzatkich» (ing. switch), جنراتور *jenerâtur* «generator» (ing. generator), پاروله *pârula* – «parol» (ing. parole), والتاژ *wâltâž* «kuchlanish» (ing. voltage), باند *bând* «diyapazon»(ing. band), مودولاتور *môdulâtur* «modulyator» (ing. modulyator), مانیپلاتور *mâniplâtur* «manipulyator» (ing. manipulator), دتکتور *detektur* «detektor» (ing. detector), الکترومانیتیک *elektrômânitik* «elektromagnit» (ing. electromagnetic), بطری *betri* «batareya» (ing. battery), اکومولاتور *akumulâtor* «akkumuliyator» (ing. accumulator), میکروفون *mikrufun* «mikrofon» (ing. microphone), ریزونانس *rizunâns* «razonans» (ing. resonance), پانل *pânel* «panel» (ing. panel), دوپلکسی *dupleksi* «dupleks» (ing. duplex), اندیکاتور *indikâtur* «indikator» (ing. indicator) va b.

Artillerya qo‘shinlari sohasida ham bir qancha ingliz tili harbiy terminlari mavjud bular: راکت *râket* «raketa» (ing. rocket), انجن *enjen* «dvigatel» (ing.



engine), لایزر *lâyzar* «lazer» (ing. laser), va shuningdek kalkalash yo‘li bilan kirib kelgan terminlar: قوه ریکتیفی *qowa-ye riktifi* «reaktiv kuch», انجن مارش *enjen-e mârš* «marsh dvigateli», تأثیر توجیهی *ta'sir-e taujihi* « ta’sir yo‘nalishi » va b.

Ommaviy qirg‘in qurollari mavzusidagi matnlarda ham bir qancha ingliz tilidan dariy tiliga kirib kelgan harbiy terminlarni uchratamiz.

Masalan: تروتیل *trôtil* «trotil» ing. trotyl, ازوتوپ *ezotop* «izotop» ing. isotope, اتوم *atôm* «atom» ing. atom, بیالوژیک *bialajik* «biologik» ing. biologik, دیتوناتور *ditunâtur* «detonator» ing. detonator va b.

Afg‘oniston qurolli kuchlari harbiy liboslarini nomlanishida ham ingliz tili so‘zlari ishlatiladi. Bu so‘zlar dariy tilining o‘ziga xos tovush sistemasiga moslashib ketadi: یونیفورم *yunifurm* «ustki kiyim» – ing. uniform, نکتائی *nektâyi* «galstuk» ing. necktie, گیتس *gites* «getra» ing. gaiters.

Har qanday tilda ham o‘zlashma so‘zlar juda oson o‘zlashib va moslashib ketadi, chunki ular o‘zlashtirayotgan tilning grammatik sistemasi ixtiyoriga o‘tadi, o‘z so‘zlari huquqini oladi. Materiallarimiz tahlili ingliz tilidan dariy tiliga ot, sifat, fe’l kabi so‘z turkumlariga oid leksik birliklar o‘zlashganligini ko‘rsatmoqda.

Yuqorida zikr etilgan misollar haqida to‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lish va so‘ngi yangiliklarni o‘rganish maqsadida internet saytlaridagi o‘zlashmalarga oid maqolalardan manba sifatida foydalanildi.

افشآکردن اساسات بکار انداختن بیسیم (اسمآکود ، فریکانس ها، کلیدها، پارولا).

(http://mod.gov.af/fa/article/56785)

Afšâ kardan-e asâsât-e bakâr andâxtan-e bisim (asmâ-ye kôd, frikâns hâ, kelid hâ, pârulâ).

«Simziz aloqa uzatish ishlarining asosini yaratilishi va ochilishi (ramzlar-kodlar, nomlar ,chastota, kalit va parollar)».

اهمیت رادیو دسیلین قواعد و مراعات نمودن آن در محاربه

(http://mod.gov.af/fa/article/56785)

Ahamiyat-e râdyu deseplin-e qawâed wa marâ`ât namudan-e ân dar mohâraba



«Jangda radioaloqa intizomi va urush qoidalariga amal qilishning ahamiyati»

به گفتهٔ سخنگوی پولیس ولایت فاریاب این ماین‌های در رویدادهای مختلف کشفی و عملیات‌های نظامی کشف و خنثی گردیده است. (http://farsi.ru/doc/5275.html)

Ba gofta-ye soxangu-ye polis-e welâyat-e fâryâb in mâynhâ-ye dar rôydâdhâ-ye moxtalef-e kašfi wa amaliyâthâ-ye nezâmi kašf ô xonsa gardida ast.

«Faryob viloyati politsiya hodimining aytishicha, bu minalar turli razvedka va harabiy harakatlar o‘tkazish natijasida topilgan va zararsizlantirilgan».

با کشف و خنثی سازی این ماین‌ها جان بیش از ۹۱۰ نفر شهروند نجات داده شده و از ۹۱ حادثه خونین جلوگیری شده است. (http://farsi.ru/doc/5275.html)

Bâ kašf ô xonsa sâzi–ye in mâynhâ jân piš az 910 nafar shahrwand najât dada šoda wa az hâdesa–ye xunin jelawgiri šoda ast.

«Bu minalarni topish va zararsizlantirish bilan 910 nafar shaharliklar qutqarildi va 91 nohush qonli holatning oldi olindi».

تعداد پرسونل قطعات وجزوتام های اردوی ملی. (http://mod.gov.af/fa/article/56785)

Tedâd-e personal-e qata`ât wa jozotâm hâ-ye ordu-ye melli.

«Milliy armiya shaxsiy tarkibi va bo‘linmalarining soni ».

خط السیرپرواز های طیارات محاربوی ، ترانسپورتی ، افشآ محلات ایکه باید بمباردمان شود بدون کوردینات و خریطه های کود شده. (http://mod.gov.af/fa/article/56785)

Xat olsayr-e parvâz hâ-ye tayyârât-e mohârabawi, trânspurti, afšâ mahalât inke bâyad bombârdemân šawad bedun-e kurdinât wa xaritahâ-ye kôd šawad.

«Jangovar, transport samalyotlarining yo‘nalishlari, bombardimon qilinishi kerak bo‘lgan joylar kordinata va xaritalarsiz ramzlangan (kodlangan) ».

روز گذشته مورخ 10 جوزاسال روان دهها راکت از آنطرف خط دیورند به ولسوالی دانگام ولایت کنر انداخت گردید. (http://mod.gov.af/fa/blog/33401)

Rôz–e gozašta–ye mowarex–e 10 jawzâsâl rawân–e dahhâ râket az ân taraf–e xat–e dyurand ba woloswâli–ye dângâm–e welâyat–e konar andâxt gardid.

«O‘tgan kuni joriy yilning javzo oyini 10 sanasida, Dirvandning u tarafidan Dangomning sharqi Kunar viloyatiga o‘nlab roketalar otildi».

روسیه راکت قاره پیما آزمایش کرد. (http://farsi.ru/doc/2275.html)



Rusiya râket-e qâra-ye paymâ âzmâyeš kard.

«Rossiya qit’alararo raketani sinab ko‘rdi».

Ma’lumki so‘z o‘zlashishi dastlab so‘z va uning ayrim leksik ma’nolari holatida yuz berib, semantik tuzilishi to‘la o‘zlashmaydi. Chunki tilga kirib kelgan dastlabki davrda o‘zlashmaning ma’nosi to‘la beriladigan va ifodalanadigan konteks hali shakllanmaydi. Zero u xalqning o‘zaro madaniy munosabatiga bog‘liq holda unga tobe munosabatda qabul qilingan narsa va predmetlarning ifoda etuvchi leksik ma’nosi orqaligina qabul qilingan bo‘ladi.

Chet tilidan o‘zlashgan so‘z asta sekin tilda ma’lum leksik birliklar bilan bog’liq holda ishlatila boshlaydi. Nutqda muayyan qo‘llanilish shakllarini oladi. Til egalari ona tillaridan unga ma’no jihatidan mos ekvivalent topishga harakat qilishadi. Mabodo, shunday til birligi bo‘lsa, o‘zlashmaning ma’nosi yana oydinlashadi.

Ingliz tilidan dariy tiliga kirib kelgan o‘zlashma harbiy terminlar haqidagi mulohazalarga yakun yasab shuni aytish mumkinki, ularning ma’nolari dariy tilida ma’lum va muayyan o‘zgarishlarni boshidan kechirgan. O‘zlashmalarda ma’no torayishi, kengayishi, qisman va to‘la o‘zgarishi, ma’no bo‘yoqlarining yangi jilosi, ma’noning ko‘chma xarakter olishi kabi bir qator o‘zgarishlar yuz bergan. Ular dariy tili lug’at tarkibiga ta’sir qilibgina qolmay, balki birgalikda yangi-yangi leksik birliklar yaratishgan. Bularning hammasi, dariy tilining o‘z imkoniyatlarini faollashtirishga, leksik jihatdan rivojlanishiga va funksional taraqqiy qilishiga katta hissa qo‘shadi. Umuman olganda ingliz tilidan kirib kelgan o‘zlashma harbiy terminlarning qo‘llanish sohalari va o‘rinlari turlicha xarakterga ega. Ularni bir necha tematik guruhlarga ya’ni: qo‘shin turlari, jangovar amaliyot turlari, radioelektron kurash va razvedka, qurol-aslaha va aloqa sohalariga bo‘lib o‘rganish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Киселева Л.Н. Язык дари Афганистана. М.,1985
2. Киселева Л.Н. Очерки по лексикологии языка дари. М.,1973



3. Белоконь В.В. Иноязычные заимствования в лексическом составе современного литературного языка дари (Электронный ресурс): В сопоставлении с персидским и другими близкородственными языками: Дис. Канд.филол.наук. –М.: РГБ 2006. – 125с

4. Ертаев Ш.И. Дарий тилидаги харбий терминлар тавсифи. Sharqshunoslik/Востоеоведение/Oriental Studies. №2.–Toshkent davlat sharqshunoslik instituti (ilmiy jurnali), 2016. – 58 b.

5. Қуронбеков А. Форс тили лексикологияси. Т., 2009

6. Слинкин М.Ф. Русско-дари военный и технический словарь.,М., Воениздат, 1981.

7. Алиев Г.Г. Персидско-русский и русско-персидский военный словарь. М., 1972.

8. Бахронова Д. К. Испан ва ўзбек тилларига ўзлашган неологизмларнинг тарихий-семантик тадқиқи //Молодой ученый. – 2021. – №. 52. – С. 394.

9. Baxronova D., O‘zbek va ispan tillariga o‘zlashgan arabizmlarning lingvistik-etimologik xususiyatlari.// O‘zbekistonda xorijiy tillar. — 2023. — № 1 (48). — B. 65-75. https://doi.org/ 10.36078/1678951407.

10. Baxronova D., Radjabova H. Xavfsiz turizmni ta’minlash sohasi terminlarida ko‘p ma’nolilik, sinonimiya va omonimiya hodisasi.// O‘zbekistonda xorijiy tillar. — 2023. — № 5 (52). — B. 7-22. https://doi.org/ 10.36078/1696486163